



## XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 6 - oktabr

VI-38-20-13-181-K/21

Amudaryo tumani hokimligi

### Ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish to'g'risida.

Amudaryo tumani byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va oshkorligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan xalq deputatlari tuman Kengashi hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida tuman hokimligi tomonidan mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalarini sarflash yo'nalishlarini belgilash bo'yicha berilgan taklifini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashining 2021-yil 27-apreldagi 238/31-6-sonli qarori asosida mahalliy byudjetning erkin qoldiq mablag'lari hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilgan pul mablag'laridan ortib qolgan qismidan ish unumdorligini oshirish maqsadida tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga CHEvrolet Damas D2DLX xarid qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida mavjud texnikalarning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida metan va dizel yoqilg'isini xarid qilish xamda tuman markazining asosiy ko'chalari bezaklarini xarid qilish uchun maqsadli foydalanish bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Temirboyevning taklifi ma'qullansin.

2. Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilgan pul mablag'larining ortib qolgan qismidan va mahalliy byudjet daromadlarining ortiqcha bajarilishi hisobidan amalga oshiriladigan xaridlar va amalga oshiriladigan ishlar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Moliya bo'limi (U.Bekniyazov)ga tuman G'aznachilik bo'linmasi (M.Qo'chkarov) bilan birgalikda yuqorida belgilangan yo'nalishlar bo'yicha mablag'larni o'z vaqtida ajratish va belgilangan tartibda moliyalashtirilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Beknazarova zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



С.Йўлдашев

Халқ депутатлари Амударё туман  
кенгашининг  
2021 йил 6 октябрдаги  
VI-38-20-13-181-К/21-сон қарорига  
1-илова

**Amalga oshiriladigan xaridlar va amalga oshiriladigan ishlar  
ro'yxati**

<b>T\r</b>	<b>Nomi</b>	<b>Bahosi</b>
1	Damas D2DLX	78 283 000,00
2	Metan yoqilg'isi	30 000 000,00
3	Ko'cha bezaklarini tayyorlash	85 000 000,00
4	Ko'cha bezaklarini sotib olish	29 717 000,00
5	Archa ko'chatlari sotib olish	180 000 000,00
	<b>Jami</b>	<b>403 000 000,00</b>